

## **XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA (XMHS) O‘TISHNING O‘ZBEKISTON UCHUN DOLZARBLIGI VA MUAMMOLARI**

*Rustamova Irodaxon*
*SDVMCHBU Toshkent filiali Buxgalteriya  
hisobi va audit yo‘nalishi 2-bosqich talabasi*

### **Kirish**

Bugungi kunda global iqtisodiy integratsiyalashuv jarayonlari shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (XMHS) asoslangan moliyaviy hisobni yuritish masalasi O‘zbekiston uchun nihoyatda dolzarb hisoblanadi.

XMHSga o‘tish orqali mamlakatdagi hisob yuritish tizimini xalqaro talablarga moslashtirish, xorijiy investorlar ishonchini oshirish va moliyaviy shaffoflikni ta’minalash imkoniyati yaratiladi. Shu boisdan, mazkur maqolada O‘zbekistonning XMHSga o‘tishdagi hozirgi holati, yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi.

### **Asosiy qism**

1. O‘zbekistonda amaldagi buxgalteriya hisobi tizimi. O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun va Milliy buxgalteriya hisobi standartlari asosida yuritiladi. Amaldagi tizim, asosan, milliy qonunchilikka tayangan bo‘lib, xalqaro tajriba va standartlardan hali to‘liq foydalanilmagan. Bu holat ko‘plab chet el investorlarining moliyaviy hisobtlarni tushunishida qiyinchilik tug‘diradi.

Milliy standartlar va Xalqaro standarlar farqlari

Mezon	Buxgalteriya Hisobi Milliy Standartlari(BXMS)	Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari(XMHS)
Huquqiy asos	Milliy qonunchilik va soliq kodeksi asosida	Xalqaro standartlar asosida, global amaliyatga mos
Asosiy maqsad	Soliq hisobini yuritish va nazorat	Investorlarga va manfaatdor tomonlarga aniq axborot taqdim etish
Mol-mulk baholash	Asosan tarixiy(dastlabki) qiymat asosida	Haqiqiy(bozor) qiymati asosida baholash keng qo`llaniladi
Daromadni tan olish	An`anaviy usul: mahsulot sotilganda yoki xizmat bajarilganda	Yangi 5 bosqichli model asosida( XMHS 15)

Hisobot tili	O'zbek tili	Asosan ingliz tili, lekin boshqa tillarda ham qo'llanadi
Moliyaxiy hisobot shakillari	Belgilangan qat`iy shakillar	Mostlashuvchan, lekin majburiy tarkibiy qismlar mavjud
Ixtiyoriy zahiralar	Kamroq aniqlik bilan shakillantiriladi	Muayyan mezonlr asosida aniq ma'lumotlar shakillantiriladi
Audit va tekshiruv	Davlat organlari tomonidan nazorat qilinadi	Mustaqil auditorlar tomonidan xalqaro talablarga muvofiq
Amal qilish sohasi	Asosan mahalliy korxonalar	Xalqaro va yirik kompaniyalar, investor jalb qiluvchi tashkilotlar

2. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (XMHS) va ularning afzallikkлari. XMHS — bu dunyo miqyosida tan olingan va qo'llanilayotgan moliyaviy hisobot standartlari majmuasidir. Ular kompaniyalar faoliyatini xalqaro miqyosda solishtirish, moliyaviy shaffoflikni oshirish, investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi. XMHS xalqaro hamkorlar bilan ishlashda ishonchlilikni oshirish va tashqi bozorlarda erkin harakat qilish imkonini beradi.

3. O'zbekiston uchun XMHSga o'tishning zarurati O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jadal rivojlanishi, xorijiy investitsiyalar oqimining oshishi, davlat korxonalarini transformatsiya qilish zarurati XMHSga o'tishni muqarrar qiladi. Ayniqsa, aksiyadorlik jamiyatlari va yirik davlat tashkilotlari xalqaro maydonda raqobatbardosh bo'lishi uchun XMHS asosidagi moliyaviy hisobotni yuritishi zarur.

#### 4. XMHSga o'tishda yuzaga kelayotgan muammolar

- Malakali kadrlar yetishmovchiligi: Ko'plab buxgalterlar milliy standartlar asosida ishlashga o'rgangan, xalqaro standartlar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlik talab etiladi.

- Qonunchilik mosligi: Amaldagi qonun hujjatlari va normativ hujjatlar ba'zan XMHS talablari bilan zid keladi.

- Texnologik va dasturiy vositalar: Zamonaviy dasturlar yetarli darajada joriy etilgan emas, mavjudlari esa ko'pincha milliy standartlarga moslashtirilgan.

- Moliya va vaqt: XMHSga o'tish jarayoni katta moliyaviy mablag' va vaqt talab qiladi.

## 5. Yechimlar va takliflar

- Ta’lim tizimini takomillashtirish: OTMlarda XMHSga oid alohida kurslar joriy etilishi zarur.
- Malaka oshirish kurslari: Amaliyotchi buxgalterlar uchun muntazam ravishda trening va seminarlar tashkil qilish lozim.
- Qonunchilikka o‘zgartirish kiritish: Milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirish talab etiladi.
- Dasturiy ta’mintarni modernizatsiya qilish: Yangi, XMHS bilan ishlashga mo’ljallangan buxgalteriya dasturlarini joriy qilish kerak.

## Xulosa va tavsiyalar

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o‘tish O‘zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Bu jarayon respublika moliyaviy tizimining ochiqligini, investitsion jozibadorligini oshiradi va xalqaro miqyosda ishonchni mustahkamlaydi. Biroq, bu o‘zgarishlar ehtiyojkorlik bilan, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Yuqorida qayd etilgan muammolarni bartaraf etish orqali O‘zbekiston moliyaviy tizimini yangi bosqichga olib chiqishi mumkin.

## Foydalilanilgan adabiyotlar

1. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonun, 1996-yil.
2. IFRS Foundation. [www.ifrs.org](http://www.ifrs.org)
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy nashrlari.
4. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga oid o‘quv qo‘llanmalar, Toshkent, 2023.